



## NATIONAL AND RELIGIOUS TRADITIONS RELATED TO WEDDING CEREMONIES AMONG THE PEOPLES OF THE ARAL SEA REGION

**Aydos Yakupov**

Researcher

International Islamic Academy of Uzbekistan  
Uzbekistan, Tashkent

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Karakalpak, marriage ceremony, bride price, dowry, matchmaking, wedding rituals, beshik-qudalik, matchmaker, orthodox marriage, reciprocal matchmaking, wedding traditions, Central Asia, ethnography.

**Received:** 13.01.24

**Accepted:** 15.01.25

**Published:** 17.01.25

**Abstract:** This article discusses the ancient traditions of marriage ceremonies among the Karakalpaks, particularly the custom of paying a bride price (qalyn pul), dowries, and various marriage rituals. The bride price holds significant importance, being paid as "milk money" to the bride's parents. The article explores the amount of the bride price, its variations across regions, the stages of the wedding ceremony, betrothal in infancy (beshik-qudalik), sending a matchmaker, the fatiha ceremony, and more. It also covers different types of marriages, such as reciprocal matchmaking and orthodox marriage customs, reflecting the ethnographic and historical characteristics of the people.

## OROL BO‘YI XALQLARIDAGI NIKOH TO‘YIGA TAALUQLI MILLIY VA DINIY AN’ANALAR

**Aydos Yakupov**

tadqiqotchi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
O‘zbekiston, Toshkent

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Qoraqalpoq, nikoh marosimi, qalin pul, sepi, qudalik, to‘yoq, beshik-qudalik, sovchi, ortodoksal nikoh, qarshi qudalik, to‘y an’analari, O‘rta Osiyo, etnografiya.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqining nikoh marosimlariga oid qadimiy an’analari, xususan, qalin puli, sepi, qudalik aloqalari va turli to‘y marosimlari haqida so‘z boradi. Nikoh an’analarda qalin pulining o‘rni alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u qizning ota-onasiga “sut haqqi” sifatida to‘lanadi. Maqolada qalin

pulining miqdori va turli hududlarda uning o‘zgarishi, nikoh to‘yining bosqichlari, beshik-qudalik, sovchi yuborish, fotiha to‘yi kabi marosimlar tafsilotlari bayon qilinadi. Shuningdek, nikohning turli shakllari, xususan, qarshi qudalik va ortodoksal nikoh kabi usullar ham yoritilgan. Bu an'analar o‘zgarib borishi bilan birga, xalqning o‘ziga xos etnografik va tarixiy xususiyatlarini aks ettiradi.

## НАЦИОНАЛЬНЫЕ И РЕЛИГИОЗНЫЕ ТРАДИЦИИ, СВЯЗАННЫЕ С БРАЧНЫМИ ОБРЯДАМИ У НАРОДОВ КАСПИЙСКОГО РЕГИОНА

**Айдос Якупов**

*исследователь*

*Международной исламской академии Узбекистана*

*Узбекистан, Ташкент*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Каракалпаки, брачный обряд, калың пулы, приданое, сватовство, свадебные ритуалы, бешик-кудалик, сваха, ортодоксальный брак, взаимное сватовство, свадебные традиции, Центральная Азия, этнография.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются древние традиции брачных обрядов у каракалпаков, в частности, обычай выплаты приданого (калың пулы), свадебных даров и различных ритуалов. Особое внимание уделено выплате калың пулы, которая является своего рода «молочным долгом» родителей невесты. В статье описаны величина калың пулы, её вариации в разных регионах, этапы свадебного обряда, обручение в младенчестве (бешик-кудалик), отправка свахи, обряд фатиха и другие. Также рассмотрены различные виды браков, такие как взаимное сватовство и ортодоксальные брачные обычаи, отражающие этнографические и исторические особенности народа.

### KIRISH

Orol bo‘yi xalqlarida, jumladan qoraqalpoq xalqida nikoh marosimiga oid kuyov tarafidan kelin tarafga beriladigan qalin puli berish an'anasi bor. Eng avvalo qalin puliga oid ma'lumotlarga to‘xtalib o‘tamiz. Qalin puli qizni tarbiya qilib, voyaga yetkazgan otasiga va onasiga “sut haqqi” sifatida to‘langan.

Qalin puli to‘langanidan so‘ng yosh juftliklarning bittasi olamdan o‘tsa, qalin puli qaytarilgan. Lekin boshqacha holatlar ham kuzatilgan: agar kuyov vafot etsa va uning qallig‘i beva qolsa, uni kuyovning akasiga yoki ukasiga nikohlangan yoki aksincha holat yuz bersa, kuyov qallig‘ining singlisiga yoki uning qarindosh singlisiga nikohlangan. Nikoh paytida qalin

pulning miqdoriga katta ahamiyat berilgan. Qoraqalpoqlarda qizni qalin pulisiz nikohlash uning oilasi uchun uyat sanalgan. Qalin pulini to‘lash mushkul bo‘lganligidan, er xotinidan 20-25 yosh, gohida undan ham katta bo‘lgan. Qalin pulini olish uchun ba’zida ota-onalar qizini o‘zi xohlamagan odamga turmushga chiqishga majburlaganlar.

## ASOSIY QISM

Qoraqalpoqlar ichida qalin puli katta miqdorni tashkil qilgan. Masalan, qalin puli chorva mollari bilan ham to‘langan. Ularning son miqdori qudalarning boyligiga nisbatan 40, 60, 80 yoki 100 bosh qoramol sifatida belgilangan.

T.A.Jdankoning asarida: “Qalin puli sifatida olti turdagи chorva mollari majmuidan tarkib topgan mol-mulk berilgan va u miltiq, bosh tulpor (egarlari va boshqa buyumlari bilan), yosh tulpor, bosh ho‘kiz, yosh ho‘kiz va sakkizta buzoq (qisir g‘unajin)ni o‘z ichiga olgan. Shularning hammasi 28 ta sigirga tenglashtirildi. Kuyovga tegishli qoramollar soni 60 taga yetganida shu chorva majmuiga 12 ta sigir qo‘shib berilgan. Bulardan tashqari, bir ot (aravasi bilan), kiyim-kechak va harxil qo‘srimcha narsalar qalin puli tarkibiga qo‘shilgan.”, – deya ko‘rsatiladi[1]. Lekin, bu miqdorlar vaqt o‘tishiga va hududlarga bog‘liq o‘zgarib turgan. Qalin pulining o‘rtacha miqdori 8 ta qoramolga, 4 otga, 5 pud donga, 10 pud unga, 8-25 matoga (5 arshin bo‘yincha), harxil oziq-ovqatga (qand, quruq mevalar) tenglashtirildi. A.T.Bekmuratov o‘zining ilmiy ishlarida “Ba’zan qalin puli olish firibgarlik va olib-sotarlikga aylanib ketishini, shundan so‘ng qizni boshqasiga uzatish xususida turli xil bahonalarning o‘ylab topilishini” qayd etgan[2].

L.S.Tolstovaning ma’lum qilishicha, Zarafshonlik qoraqalpoqlarda qalin puli miqdori 20-200 qo‘y oralig‘ida bo‘lgan. Farg‘onalik qoraqalpoqlarda bu miqdar o‘rtahol oilalarda 7-9 qoramolni tashkil qilgan. Badavlat odamlar orasida qalin puli miqdori 30-35, ba’zi hollarda 40-80 ta qoramolgacha yetgan[3].

Xotin olish uchun shu tarzda qalin pulini to‘lash o‘rtahollarning holatini og‘irlashtirdi, kambag‘allarning yillar davomida shu an’ana uchun yollanma ishchi bo‘lib ishlab, hattoki 40 yoshgacha uyvana olmay yurishiga sabab bo‘lgan. To‘y kuni o‘ziga yig‘ilgan to‘yanani qalin puliga berib, yo‘qchilikdan qutula olmagan.

Qizning ota-onasi o‘z tomonidan to‘y sepini berdilar. Kambag‘al oilaning sepi boylarg‘a nisbatan oddiy edi. Sepning tarkibiga kigiz uy, uning yopinchiplari, ko‘rpa-yostiq, kelinning kiyimlari kirar edi.

Garchi, qalin pulisiz uylanish mumkin bo‘lmasa da, sepsiz turmushga chiqish odatiy hol edi. Sep – kelinning xususiy mulki hisoblangan. Lekin oila kambag‘al bo‘lsa, kelinning sepini qaynisinglisi turmush qurbanida berib yuborilar, kelin unga qarshilik qilolmas edi.

Qoraqalpoqlarning nikoh to‘yi to‘rtta asosga tayanilgan:

1. Quda bo‘lish.

2. Ikki yoshni unashtirish to‘yi (kelinning uyidagi fotiha to‘yi).
3. Nikoh to‘yi (kelinning uyida bo‘lib o‘tadigan asosiy to‘y).
4. Kuyovning uyida bo‘ladigan to‘y marosimi. (Katta to‘y)

Qoraqlpoqlarda farzandlarni beshikdan yoki onasining qornidaligi paytida unashtirish keng tarqalgan. Bu beshik-quda bo‘lish deb nomlangan. Beshik-qudachilik faqat qoraqlpoqlargagina xos odat emas. Bu O‘rta Osiyo xalqlarining deyarli barchasida kuzatilgan. N.A.Kislyakov shunday yozadi[4]: “Beshik-qudalar o‘zaro bir-biriga hurmat-izzat ko‘rsatib, gohida farzandlarining kiyiminig etagiga ichak solib, buni ularning bo‘lajak kuyov va qalliq ekanligining belgisi deb bilishgan. Bunday qudalar o‘rtasida qalin pulining miqdori ham kamroq bo‘lgan. Aslida, beshiktagi go‘daklarni unashtirib qo‘yish odatining ildizi eski zamonlarga – matriarxat davriga to‘g‘ri kelishi mumkin. Ayollar hukmdorligi davridaa bitta ona qabilasining og‘illari tug‘ilishi bilan ikkinchi ona qabilasining qizlarining eri sifatida qaralgan. Nikohning bu turini L.Y.Shternberg ortodoksal nikoh deb atagan[5]. Shunday qilib, ortodoksal nikoh ommaviy nikohdan yakka nikohga o‘tish davri bilan chambarchas bog‘liqdir.

Beshik qudachilikning ortodoksal nikoh bilan bog‘liqligini manbalarga tayangan holda, L.Y.Shternberg: “Har bir o‘gil ko‘rgan ayol o‘sha paytning o‘zida qizi bor qarindoshiga bolalarni unashtirish kerakligini iltimos qilib, quda-anda bo‘lish ramzi sifatida itning yungidan to‘qilgan iplarni go‘daklarning bilaklariga bog‘laganlar” – deya yozadi[6].

Quda bo‘lish orqali nikohlanishning bundan boshqacha turlari ham mayjud bo‘lgan. Misol tariqasida qarshi quda bo‘lish an’anasini ta’kidlash joiz.

Qarshi quda bo‘lish uchta quda o‘rtasida (A, B va V) sodir bo‘ladigan jarayondir. L.Y.Shternbergning yozishicha, A o‘g‘lini B-ning qiziga unashtirishsa, B o‘g‘lini V ning qiziga, V o‘g‘lini A ning qiziga unashtirar edi. Qarshi quda-andachilikning yuqorida keltirilgan turlarining qaysi biri bo‘lsa ham nikoh qurishning ortodoksal qadimiy turiga molikdir. Ya’ni, uning qoldiqlari ekanligi ilk marta gilyaklar keltirgan manbaga tayangan holda L.Y.Shternberg isbotlagan[7].

Hattoki, farzandlari voyaga yetgan taqdirda ham, ularning taqdirini ota-onalari hal qilgan.

Qalliq tanlaganda yigitning qarindoshlari uning chiroyiga, puxtaligiga, oilaviy sharoitiga e’tibor bergen.

Hammasi hal qilinganidan so‘ng, quda tomon sovchi yuborgan. Sovchi bo‘lish uchun nomzodni nufuzli odamlar tanlangan.

Qudalarni mehmon qilishda qizning barcha qarindoshlari va yaqinlari yig‘ilgan (kichik fotiha to‘yi). Agarda, tomonlar nikohga qarshi bo‘lmasalar, qalin puli miqdori va nikoh to‘yining vaqtini kelishib olishgan. Nikoh to‘g‘risida kelishuvning ramzi sifatida qiz tomon qudalarga tasma sovg‘a qilib, qudalar yog‘ aralashgan tariq – mayso‘kdan dam totgan.

Fotiha to‘yi kuni qudalarni kuzatib qo‘yish paytida qiz tomon “to‘qqizlik”, ya’ni to‘qqizta turdagи sovg‘a ulashgan: ikkita bilakuzuk, beshta do‘ppi, mato bo‘laklari[8]. Shunga o‘xshash an’ana XIX asrda qozoqlarda ham bo‘lgan. Etnograf Arg‘inbekning so‘zlariga ko‘ra, XIX asrda qozoqlarda qalliqning qalin puli bilan sepi “to‘qqizlik” bo‘yicha aniqlangan[9]. “To‘qqiz” sonining irim-sirimlarda uzoq saqlanishi sepga oid eski e’tiqodlar bilan bog‘liqdir. Qalliqning sepining tarkibiga badavlat odamlarda kigiz uy, nikoh kiyimi, savat, kelinning taqinchoqlari kirgan. Shu narsalarning atigi bittasining yetishmasligi gohida nikoh to‘yining keying goldirilishiga olib kelgan.

Fotiha to‘yi (quda-anda bo‘lish) kuni majburiy rasm-rusmning bittasi – non sindirish marosimidir. Shu orqali ikki tomon kelishuvni buzmaslik to‘g‘risida shartlashishgan. (Samarqandlik, Farg‘onalik).

Buxorolik qoraqalpoqlarning nikoh to‘yiga oid an’analarda maslahatlashuv to‘yi muhim rol o‘ynagan. Bu to‘yda tomonlar asosiy to‘yning (katta to‘y) o‘tkazish jarayonini maslahatlashganlar. (masalan, to‘yga qancha mol so‘yilishi, milliy o‘yinlarning g‘oliblariga qancha miqdorda mukofot berilish masalalari).

Odatda, nikoh to‘yi va qalliqning yigit tomon uyidan olib ketguniga qadar qalin puli to‘liq to‘lanishi lozim edi; agar kuyov tomonning oilasi kambag‘al bo‘lsa, nikoh to‘yi sanasi ham uzoq vaqtarga cho‘zilib ketardi.

Bu paytda ikki yosh yashirincha uchrashib turgan. Bu haqda nafaqat qizning ota-onasi, balki butun qishloqdagilar xabardor bo‘lsa ham, odatiy hol sifatida qabul qildilar. Ikki yoshning uchrashish joyi qizning akasining uyi edi. Hattoki, kamdan-kam holatlarda, qiz homilador bo‘lib, otasining uyida tug‘ish holatlari kuzatilgan. (o‘ng tomonga tush – o‘ng ostonada tug‘). Bu qizning otasi, oilasi uchun uyat sanalmagan. Shu tarzda qizning otasining uyida tug‘ilgan bola qizning ota-onasining tarbiyasida qolgan.

Qizga bo‘lajak kuyovning uyiga uzatilguniga qadar erkin yurishga ruxsat etilgan. Masalan, o‘tirishmalarga borishi mumkin bo‘lgan. Buning oqibatida qizning bo‘lajak kuyovdan emas, boshqa odamdan homilador bo‘lish holatlari kuzatilgan. Bu uchun ham qizni ayplashmagan. Bolani bo‘lajak kuyov asrab olgan[10].

Qalin puli yig‘ilib bo‘lganidan so‘ng, bu haqida qizning ota-onasi xabardor qilinib, ular qalin pulini olib ketishi uchun kuyovning uyiga borgan. U yerda mehmonlar uchun qo‘y so‘yilib, dasturxon yozilgan. Kelgan mehmonlar tayyorlangan qalin pulini tekshirib olgan. Qizning otasi qalin pulini olganidan so‘ng qo‘y so‘yib, yig‘ilgan jamoatga taom tortilgan.

Nikoh to‘yi yaqinlagan kunlarda kuyov va qalliqning uylariga mehmonlar yig‘ilib, yig‘in tashkillashtirilgan. Kuyovning uyiga kelgan mehmonlar yordam o‘rnida to‘yanalar olib kelgan.

Shu kuni qalliqning uyiga yigit tomon ho‘kiz olib kelib bergan va qizning qarindoshlari uni so‘yib, go‘shtidan butun qishloqqa ulashtirgan. (“so‘g‘im” marosimi).

Bo‘lajak kuyov nikoh to‘yiga kelganida qizning yangalariga naqd pulda ko‘plab to‘lovlar qilgan. (Bu holat “qade bermoq” deyiladi). To‘y kunida kuyovbola – yo‘l bilan yurish uchun ham, qishloqqa kirish uchun ham, qora uyga kirish uchun ham (ostonadagi yolg‘ondan o‘lgan kampir uchun ham), “soch silash”, “qo‘lidan ushslash” kabi nomlanadigan to‘lovlarini amalga oshirgan.

Nikoh to‘yi marosimlarida “Kechki mehmon” marosimi ham aloHida o‘rin egallagan. Kuyovning do‘satlari va yaqinlarining iltimosiga binoan qishloqning yosh qiz-kelinlari chaqirilib, harxil o‘yinlar tashkil qilingan. Kuyovning qishlog‘idan kelgan qiz ham, kelin ham bu o‘yin-kulgularga taklif qilinmagan[11].

## XULOSA

Umuman olganda, qalliqni olib ketish oldidan qalliqning qarindoshlari “qudalarga suv quyish” marosimini o‘tkazgan; qiz-kelinlar va yosh yigitlar kosalarga suv quyib, qudalarning bosh kiyimini yechib, muzdek suv quyishgan. Ayollar qudalarning yuziga un surtganlar. Bu holatlar bo‘lmasligi uchun ham kuyovdan to‘lov talab qilishgan.

Qalliqning uyidan chiqish paytida musilmونlarga xos nikoh o‘qilgan. Imom yosh juftlikning o‘zaro roziliginini so‘ragan va guvohlar ishtirokida bu marosim ham amalga oshirilgan. Suv quyilgan idishga qizning otasi tanga solgan. (Hozirgi kunda yoshlarni hayoti totli, shirin bo‘lsin degan niyatda novot solish urf bo‘lgan). So‘ngra duo qilinib, suvdan qizning otasi va guvohlar ho‘plashgan.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Жданко Т. А. Каракалпаки. В кн. Народы Средней Азии и казахстана Т. 1 М., 1962. –В 497.
2. Бекмуратова А. Т. Семейно-бытовой уклад каракалпаков в прошлом. «Задача преодоления его вредных пережитков» М., 1967. –В 13.
3. Толстова Л. С. Каракалпаки за пределами Хорезмского оазиса в XIX- начале XX века, Нукус-Ташкент 1963. –В 96.
4. Кисляков Н. А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана, Л., 1969. –В 87.
5. Штенберг Л. Я. Семья и род у народов Северо-Восточной Азии, Л., 1933. –В 136.
6. Штенберг Л. Я. Семья и род у народов Северо-Восточной Азии, Л., 1933. –В 136.
7. Штенберг Л. Я. Семья и род у народов Северо-Восточной Азии, Л., 1933. –В 136.
8. Этническая история и традиционная культура народов Средней Азии и Казахстана, Нукус, 1989. –В 58.
9. Аргыбаев Х. А. Семья и брак у казахов А., 1975. –В 86.
10. Кисляков Н. А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана , Л., 1969. –В 82.

11. Морозова А. С. Следы древних форм семьи у каракалпаков // Труды Ташкентского государственного университета. Вып. 172 Археология Средней Азии Т. 5, Ташкент, 1960. –В 182.